





Fan va innovatsiya



Quyidagi rasmda ilmiy tadqiqot ishlari 4 ta sektorga ajratib ko'rsatilgan:

Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi ilmiy va innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada yaratilgan har qanday ilmiy natijalarni ishlab chiqarishni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 7- maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohaslariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-sonli qarori mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlarga dasturiy amal bo'lib xizmat qilmoqda.





O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar, qabul qilinganlar va bitiruvchilar soni (2019- yil, kishi)

Tahsil oluvchilar



2247

Qabul qilinganlar




1013

Bitiruvchilar



335

2019- yilda tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar 2247 nafarni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 483 taga (27,4 %) ko'paygan.



2019- yilda respublikamizda tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlarning umumiy soni 114 tadan iborat bolib, ulardan 59 tasi ilmiy tashkilotlar va 55 tasi esa, oliy ta'lim muassasalarini tashkil etadi. Ularda tahsil oluvchilar soni 2247 nafar bo'lib, qabul qilinganlar 1013 nafarni hamda bitiruvchilar esa, 335 nafarni tashkil etgan.







O'zbekiston Respublikasi bo'yicha doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni (2019- yil, birlikda)

Jami tashkilotlar 74 ta

Ilmiy tashkilotlar 38 ta

Oliy ta'lim muassasalari 36 ta




Respublikada ish turlari bo'yicha tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba- konstruktorlik ishlanmalari hajmi (2019- yil, mlrd.so'm)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019-yilda jami ishlanmalar hajmi 853,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, ulardan davlat sektoridagi ishlanmalar 314,7 mlrd. so'mni, tadbirkorlik sektoridagi ishlanmalar 429,2 mlrd. so'mni, oliy ta'lim sektoridagi ishlanmalar 106,7 mlrd. so'mni, xususiy notijorat sektoridagi ishlanmalar 2,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.



O'zbekiston Respublikasida ish turlari bo'yicha tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari hajmi (2019- yil, mlrd. so'm)*




*Bitta tashkilot bir nechta ish turini bajarganligi sabab, ish turlari hajmi yig'indisi jami yig'indiga teng emas.





Respublikada fan sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar, (2019- yil, mlrd.so'm)

Fan sohalari bo'yicha jami xarajatlar o'tgan yilga nisbatan 13,9 % ga oshib, 602,3 mlrd. so'm bo'lgan, shundan tabiiy va texnika fanlari 387,0 mlrd. so'mni, tibbiyot va qishloq xo'jaligi fanlari 106,6 mlrd. so'mni, ijtimoiy va gumanitar fanlar 108,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.





Respublikada ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar (2019- yil, mlrd.so'm)



Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga jami xarajatlar 602,3 mlrd. so'mni tashkil etib, shundan davlat sektori bo'yicha 304,4 mlrd.so'mni, tadbirkorlik sektorida 191,0 mlrd.so'mni, oliy ta'lim sektorida 104,1 mlrd.so'mni va xususiy notijorat sektorda esa, 2,8 mlrd.so'mni tashkil etgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, fan sohasida 4 ta sektor bo'yicha ko'rsatkichlar chiqarib olinadi.




Respublikada hududlar bo'yicha innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni (2019- yil, birlikda)

O'zbekiston Respublikasi	3916
Qoraqalpog'iston Respublikasi	59
<i>viloyatlar:</i>	
Andijon	128
Buxoro	172
Jizzax	116
Qashqadaryo	137
Navoiy	574
Namangan	184
Samarqand	215
Surxondaryo	212
Sirdaryo	315
Toshkent	388
Farg'ona	431
Xorazm	80
Toshkent sh.	905

Innovatsion korxonalar bu – belgilangan statistik hisob davrida ma'lum bir innovatsiyani joriy qilgan korxonalar hisoblanadi. Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Innovatsion ishlarni bajargan tashkilotlar soni 3916 tani tashkil etgan bo'lsa, ulardan eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri hamda Navoiy va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, birlik:






O'zbekiston Respublikasi bo'yicha innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (2019- yil, birlikda)

2019- yilda innovatsion loyihalarni amalga oshirgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3753 tani tashkil etgan bo'lsa, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng katta ko'rsatkich ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelib 1979 tani tashkil etdi.



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (2019- yil, mlrd.so'm)

Statistik hisobot topshirgan korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlariga qarab ajratib olinadi. Ular amalga oshirgan innovatsion ishlar hajmi asosan ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelib, jami hajmga nisbatan 53,7 % ni tashkil etgan.





Respublikada hududlar bo'yicha bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (2019- yil, % da)

Innovatsiya ta'rifi bo'yicha, tashkilot uchun yangi, ichki bozor uchun yangi yoki butun dunyo uchun yangi bo'lgan ma'lum miqdordagi yangilikni o'z ichiga oladi.


O'zbekiston Respublikasi	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,8
<i>viloyatlar:</i>	
Andijon	15,0
Buxoro	0,9
Jizzax	1,6
Qashqadaryo	10,0
Navoiy	2,0
Namangan	2,9
Samarqand	2,8
Surxondaryo	0,4
Sirdaryo	1,7
Toshkent	10,4
Farg'ona	2,2
Xorazm	1,7
Toshkent sh.	47,6

2019-yilda bajarilgan va sotilgan innovatsiyalar hajmi 26293,8 mlrd.so'm bo'lib, shundan yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrida 47,6 % ni va Andijon viloyatida 15,0 % ni tashkil etgan. Innovatsiya sifatida hisobga olish uchun eng kam talab shundan iboratki, bunda mahsulot yoki jarayon tashkilot uchun yangi (yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan) bo'lishi kerak.





Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (2019- yil, % da)



2019- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar hajmi 26293,8 mlrd. so'mni tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkich ishlab chiqarish sanoati (53,4%)ga to'g'ri keladi. Innovatsion faoliyat takomillashtirilgan mahsulot yoki jarayonlarning yuzaga kelishiga olib keluvchi barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat chora-tadbirlarini qamrab oladi.






Respublikada moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar (2019- yil, mlrd.so'm)

Texnologik, marketing va tashkiliy xarajatlar jami 6603,5 mlrd. so'mni tashkil etib, shundan tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidagi xarajatlar 3342,9 mlrd. so'mni, chet el investitsiyalari hisobidagi xarajatlar 1083,7 mlrd. so'mni, tijorat banklari kreditlari 1060,1 mlrd. so'mni, byudjet mablag'lari 727,9 mlrd. so'mni, maqsadli byudjetdan tashqari fond mablag'lari 307,2 mlrd.so'mni hamda boshqa turdagi manbalar hisobidagi xarajatlar 81,8 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, mlrd.so'm:






O'zbekiston Respublikasi bo'yicha joriy qilingan innovatsiyalar soni (2019- yil, birlikda)



Innovatsiya 3 turga bo'linadi. Bular texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalardir. 2019- yilda jami joriy qilingan innovatsiyalar 4689 tani tashkil etib, shundan 4427 tasi texnologik innovatsiyalar, 128 tasi marketing va 134 tasi tashkiliy innovatsiyalardir. Innovatsion faoliyat – g'oyalar transformatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni bozor uchun joriy etish bilan hamohang bo'lgan faoliyat hisoblanadi.



Texnologik innovatsiyalar 2 turga bo'linadi:

Mahsulotlar bo'yicha 3543 ta


Jarayonlar bo'yicha 884 ta



Respublikada korxonalar va tashkilotlar tomonidan oxirgi 3 yil davomida bajarilgan innovatsiyalarning ta'sir darajasi (2019- yil, % da)

Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar

Respublikamizda so'rovnoma bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv natijalari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyalar ta'sir darajasini 17,8 % ga past deb baholagan bo'lsa, 42,1 % o'rtacha, 21,5 % yuqori va 18,7 % holatda umuman ta'sirga ega emas deb baholadi. Tanlanma kuzatuvning asosini respublikamiz hududida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR)da hisobda turgan tashkilotlar tashkil etadi. Tanlanma miqdori har bir hudud bo'yicha mos qatlamning 10 % ini tashkil etadi.



Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish
statistikasi boshqarmasi
Tel.: 71-202-81-62